

YO'L QURILISHI SOHASIDA ISHLAB CHIQUARISH HAMDA TA'LIM INTEGRATSIYASI

Xolmurotov D.D

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

*Ilmiy rahbar: **Raxmatov S.S***

Toshkent davlat transport universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi hamda Toshkent davlat transport universiteti Avtomobil yo'llari muhandisligi fakulteti o'rtasidagi ishlab chiqarish hamda ta'limning o'zaro integratsiyasi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida tashkil etilgan press-tur natijalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, nazariy bilimlar, raqobatbardosh kadr, milliy o'quv dasturini, videoselektor, press-tur, «North West Construction LLC», CRBCCChina.

Oliy ta'lim muassasalari jamiyatga yetuk kadrlarni tayyorlash bilan birgalikda, zamonaviy bilimlarni qo'llab, turli tadqiqotlar olib borgan holda, texnika yutuqlarini, zamonaviy innovatsiyalar, yangi ixtirolar hamda sohalar rivojlanishiga olib keladigan loyihalarni amalda yaratishi ham lozim. Buning uchun professor-o'qituvchilar va talabalarning universitet hududida auditoriyadan chiqmasdan turib dars mashg'ulotlarini olib borishining o'zi kamlik qiladi.

Nazariy bilimlar qanchalik kuchli bo'lmasin, ularni amaliyot bilan bog'lamas ekanmiz, ko'zlagan maqsadimizga erisholmaymiz. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar hamda talabalarni kasbiy amaliyotga yo'naltirish yetuk kadrlar tayyorlash va soha yangiliklarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi[1].

Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida sifatli ta'lim - inson kapitalini rivojlantirishning xal qiluvchi omili to'g'risida gapirib, bunda uzluksiz ta'lim tizimi uchun milliy o'quv dasturini joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor berib o'tgan[2-4]. Bu masalalarni bugungi mehnat bozori tamoyillari asosida hal etishda "fan-ta'lim-ishlab chiqarish" innovatsion hamkorligini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2022-yilning 16-iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida 4 ta ustuvor vazifani ko'rsatib o'tdi:

Birinchisi – oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

Ikkinchisi – o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratish.

Uchinchisi – oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish.

To'rtinchisi – professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'zbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish. Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta'lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta'kidlandi va amalyotga tadbiiq etilmoqda[4].

Ushbu harakatlarning isboti sifatida ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tashabbusi bilan joriy yilning 18 – 19 noyabr kunlari bir guruh jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar hamda Toshkent davlat transport universiteti Avtomobil yo'llari muhandisligi o'qituvchi va talabalari uchun Orolbo'yiga press-tur tashkil etildi.

Ushbu press-turda Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchi va talabalarini jalb qilishdan asosiy maqsad, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga keng yo'naltirish borasida hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, yo'l qurilish-ta'mirlash obyektlarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirish hamda kelajakda ish o'rni bilan ta'minlash maqsadida mavjud qurilish obyektlari bilan tanishtirishdir.

Pres-tur doirasidagi amaliy stajirovkada talabalar dastlab, **Qoraqalpog'iston Respublikasi Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasiga borib, u yerda bosh muhandis bilan suhbat qurishdi. Suhbat chog'ida shu hududdagi umumiy yo'llar uzunligi va holati haqida suhbatlashildi.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha jami umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llari 4 ming 213 kilometrni tashkil etadi[5]. Bundan;

- davlat ahamiyatidagi yo'llar 992 km,
- mahalliy ahamiyatdagi yo'llar 2557 km,
- xalqaro ahamiyatdagi yo'llar 664 km.

Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda A380 - "G'uzor – Buxoro – Nukus – Beyneu" avtomobil yo'lining 964-1204 km oralig'ida 240 km qismini sementbeton qoplama bilan rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlar olib borilayotganligi haqida ma'lumot berib o'tildi.

Qolaversa, suhbat davomida yo'lchi muhandislarning kasb mashaqqati hamda savobli ish ekanligi haqida so'z yuritildi. Bu esa talabalarda sohaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi.



1-Rasm. Bosh muhandis **Reimov Damir bilan suhbat jarayoni**

Keyingi kunda pres-tur ishtirokchilari jumladan, o'qituvchi hamda talaba yoshlar ham A380 «G'uzor–Buxoro–Nukus–Beyneu» avtomobil yo'lida olib borilayotgan qurilish ishlari bilan tanishish maqsadida Jasliq posyolkasi tomon yo'lga chiqishdi. Dastlab Ozarbayjonning «North West Constnition LLC» kompaniyasi tomonidan qurilgan yo'l bo'linmasiga tashrif buyurildi. U yerdagi sinov-laboratoriya ishlarining olib borilish tartibi va yo'lsozlarning mehnati, ularga yaratilgan shart-sharoitlarni kuzatishdi.



2-Rasm. «North West Constnition LLC» kompaniyasining sinov-laboratoriyasi

Shundan so'ng qurilish ishlari olib borilayotgan 1050-kilometrdagi olib borilayotgan yo'l poyini qurish ishlari bilan yaqindan tanishib, o'qituvchi hamda talaba yoshlar mutaxassislardan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Qurilish obyektida Ozarbayjonning «North West Constnition LLC» va Xitoyning «Road and Bridge Corporation» (CRBCChina) kompaniyalaridan

40 nafar malakali mutaxassislar hamda 300 nafardan ortiq o'zbekistonlik yo'lsozlar mehnat qilishmoqda.



3-Rasm. Yo'l poyini qurish jarayonlari.

Xulosa qilib aytganda, ushbu amaliy stajirovka jarayonida to'plangan ma'lumotlar, olingan bilimlar kelajakda Respublikamiz avtomobil yo'llari sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, soha mutaxassislarini malakasini oshirishda shuningdek, sohaga doir o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza darslari uchun o'quv materiallari tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. L.Zaripov, N.Xayitov, M.Tuxtaeva. "Oliy ta'lim muassasalarining ish beruvchilar bilan o'zaro hamkorligi(xorij tajribasi)". Metodik qo'llanma. Toshkent: "Sano-Standart", 2023 y-32 bet.

2. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.

3. Yo'ldoshev A.A. Fan-ta'lim-ishlab chiqarishda integratsiyon yondashuv. Academic Research in Educational Sciences. 2022 y. 668-673 betlar.

4. Raxmatov S.S. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish" metodini "Avtomobil yo'llarini qurish va ekspluatatsiya qilish" fanida qo'llash //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023–Т. 614-617 betlar.

5. <https://www.uzavtoyul.uz/open-data/open-electronic-map-showing-state-of-roads/avtomobil-yollarining-holatini-korsatuvchi-ochiq-e>